

BARHAYOT QO'SHIQLAR SOHIBI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18900380>

Jumaboyeba Xafizaxon Jaloldinovna.

*Sh.Jo'rayev nomidagi musiqa va san'at
oliy maktabi matematika –informatika fani o'qituvchisi*

Abstract:

This article provides complete information based on accurate sources about the life and work of Sh.Juraev, a master of Uzbek art and the author of more than six hundred immortal songs.

Keywords:

Ghazal, song, music, heritage, book, creativity, chance, achievement, attention, artist, birthday, epic poem, literary work, composer, poet, writer, creator, poem, manual.

Аннотация.

В данной статье представлена полная информация, основанная на достоверных источниках, о жизни и творчестве Ш. Джураева, мастера узбекского искусства и автора более шестисот бессмертных песен.

Ключевые слова и выражения.

Газель, песня, мелодия, наследие, книга, творчество, возможность, достижение, внимание, артист, день рождения, поэма, произведение, композитор, поэт, создатель, творец, стихотворение, руководство.

Аннотация.

Ushbu maqola uzbek san'atining mohir ustasi olti yuzdan ortiq o'lmas qo'shiqlar sohibi Sh.Jo'rayev hayoti va ijodi haqida aniq manbalarga asoslanib to'la ma'lumot berish.

Таянч сузлар ва иборалар

G'azal, qo'shiq, kuy, meros, kitob, ijod, imkon, yutuq, e'tibor, artist, tavallud ayyomi, doston, asar, bastakor, shoir, ijodkor, she'r, qo'llanma,

Sherali Jo'rayev (tavallud paytidagi ismi sharifi – Sheramat Jo'rayev, [1947-yil 12-aprel, Asaka tumani, Andijon, O'zbekiston SSR, SSSR](#) – [2023-yil 4-sentyabr, Toshkent, O'zbekiston](#)) – [o'zbek](#), [bastakori](#), [shoiri](#) va [aktyori](#). 1987-yil [O'zbekiston SSR xalq artisti](#) unvoni, 2018-yilda esa [Tojikiston](#) xalq artisti unvoni berilgan. 1991-yil unga Alisher Navoiy nomidagi [O'zbekiston Respublikasi Davlat](#)

[mukofoti](#) berilgan. 2022-yilning 12-aprelida Prezident farmoniga binoan o'zining 75 yillik yubileyida Jo'rayev „[El-yurt hurmati](#)“ [ordini](#) bilan ham taqdirlangan. [O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi](#) a'zosi. Sh.Jo'rayevning qo'shiqlarni o'zbeklar orasida yaxshi tanilgan. El suygan hofiz, san'atkor 2023 yil 4 sentyabrda vafot etgan.

Sherali Jo'rayevning adib Xurshid Davron bilan suhbatida savollarga bergan javobidan quyidagilarni bilib olish mumkin: Siz bilan ikki ulug' zot – Zahiriddin Muhammad Bobur va bobomiz Hazrat Navoiyning tavallud ayyomlari arafasida suhbatlashib turibmiz. Yoshlar bu ikki zotning asarlarini birdaniga tushunib ketishida biroz murakkablik sezishadi. Ularni o'rganish jarayonida yoshlarga nimani maslahat bergan bo'lardingiz?

– Kitob o'qishni! Muttasil va uzluksiz, kunni-tunga ulab, mutolaa zavqidan bahra olib, kitob o'qishni maslahat beraman. O'qiganda ham asl kitobni tanlab, mehr bilan o'qish zarur. Albatta, maktablarimizda Hazratni o'rganamiz, Bobur bobomiz asarlarini o'qiymiz. Lekin Hazratning bizga qoldirgan adabiy merosi shunday bir ummonki, uni butun umrimiz davomida o'rgansak va kelgusi avlodga o'rgatsak arziydi. Shuningdek, Bobur Mirzoning hayot yo'li, u chekkan mashaqqatlar va shuncha sinovlarga qaramay, ijoddan chekinmaganidan har qancha o'rnak olsak yarashadi.

Men ham juda yoshligimdan kitob o'qiganman. O'qiganda ham radiodagi chiroyli ovozlarga taqlid qilib, tinish belgilariga e'tibor bilan ifodali o'qishga harakat qilganman. Hamisha kitob ko'tarib yurganim uchun otam “Shu o'g'lim olim bo'ladi” deb qo'yardi. Lekin men olim bo'lmadim, qo'shiqchi bo'ldim.

Mening bu darajaga yetishimda otamning o'rni beqiyos. U kishi biz farzandlarga kitob olib kelib, “Bizning yoshligimizda kitob o'qishga imkon bo'lmagan, sizlar o'qinglar, albatta o'qinglar!” deb tayinlar va biz kitob o'qisak, o'zi ham tinglab o'tirardi. Hazrat Navoiy, Bedil ijodiga o'sha paytlarda oshno bo'lganman. Esimda, otam Hazratning uch tomli to'plamini olib kelib bergandi. Xamsaga kirgan barcha dostonlar mavjud bo'lgan bu to'plamning o'ziga xos tomoni shunda ediki, unda dostonlar ham nazmda, ham nasrda bayon qilingandi, ya'ni tushunish birmuncha oson edi. Bu kitoblar hozir ham bor va yoshlarimiz ularni albatta mutolaa qilishlari kerak.

Sizlarga bir voqeani aytib bersam: Men yoshligimda ota-onamga “Nega mening ismimni Alisher qo'ymagansizlar?” deb e'tiroz qilardim. U paytlar ism-sharif yozishda bosh harf qo'yish urf bo'lgandi. Otamning ismi Nurmuhammad, agar mening ismim Alisher qo'ymagansizlar?” deb e'tiroz qilardim. U paytlar ism-sharif yozishda bosh harf qo'yish urf bo'lgandi. Otamning ismi Nurmuhammad, agar mening ismim Alisher bo'lganida ism-sharifimni yozishda “Alisher N.” deb

yozardim, deb orzu qilardim. Bu ham Hazratga bo'lgan cheksiz hurmatimning kichik bir ramzi edi-da. Endi qarang, bir necha yil oldin safarga jo'nash chog'ida aeroportda ketayotgan edim. Oldimdan bir lo'li bolakay chiqdi va sadaqa so'radi. Unga bir necha so'm pul uzatdim. U xursand bo'lganicha, naryoqdagi sheriklari tomon yugurib ketdi. Bolalar to'dalashib kelguniga qadar men to'siqlarning narigi tarafiga o'tib ketdim. Shunda ular buyoqqa o'tolmay, qo'l silkiganlaricha meni chaqira boshlashdi. Ular meni ko'rib, tanishyapti, lekin birortasi ismimni eslay olishmayapti va chaqira olmayapti. Shunda bolakaylardan biri "Alisher" deb qichqirdi (ismimni o'zim xohlaganday o'zgartirib aytdi), keyin barchasi birvarakayiga "Alisher, Alisher" deb chaqira boshlashdi. Qarang, men xalq ozmi, ko'pmi tanigan qo'shiqchiman, shu lo'li bolakaylar televizorda meni ko'rishgan, gazeta-jurnallarda suratlarim chop etilgan. Lekin mening ismimni eslashmasa ham Hazratning ismini yaxshi eslashyapti. Navoiy bobomiz barchaning qalbidan chuqur o'rin olganining yana bir isboti bu.

A.Navoiy ijodidan:

Ko'nglim ichra dard-u g'am...

Ko'nglim ichra dard-u gam avvalgilarg'a o'xshamas,

Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg'a o'xshamas.

Ne sitamkim, rahmi maxfi zimnida,

Emdi qilsa har sitam avvalgilarg'a o'xshamas.

Demengiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,

Xo'blikda ul sanam, avvalgilarg'a o'xshamas.

Javridin emdi alamlar, emdi tutmish o'zga yor.

O'lmishamkim, bu alam, avvalgilarg'a o'xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung'a o'xshatmang meni,

Kim, rasvoyi dijam, avvalgilarg'a o'xshamas.

Ko'yining ehtiromidin ko'limni man etmang yana,

Kim, anga azmu haram, avvalgilarg'a o'xshamas.

Ey Navoiy, qilmi Jamshid-u Faridin vafikim,

Shoh G'oziyg'a karam, avvalgilarg'a o'xshamas.

Sh. Jo'rayev bilan mazmunli suhbat davomida J.Rumi hazratlari asarlarini ham chuqur o'rganganligini ahglash mumkin. Jumladan u shunday deydi:

Men haligacha Navoiyni o'rganaman va hanuz hayratga tushishda davom etmoqdaman. Hozir ham o'zim birdaniga tushuna olmagan yangi so'zlarga duch kelaman va darrov ularning mag'zini chaqishga harakat qilaman. Shukurki, yurtimizda yetuk Navoiyshunos olimlar bor, ular ham mening bu odatimni

yaxshi bilishadi va yarim tunda qo'ng'iroq qilishimga hamda birdaniga savol berishimga o'rganib qolishgan.

– Ijodingizda Jaloliddin Rumiylar asarlariga ham ko'p murojaat qilasiz.

– Bu inson adabiy merosi ham juda beqiyos. Kunlarning birida “Tark aylama” g'azalining bir qismini menga aytib berishdi. O'shani eshitdimu buning davomi bo'lishi kerakligini angladim.

Qarang:

Goh u yonu goh bu yona talpinar lov-lov yonib,

Titragay ojiz bu tanda e'tiqod ham o'rtanib,

Bo'ldi kim sobit bu yo'lda, kimdir imondan tonib,

Dod etarman yolvorib, imon mani tark aylama.

Mana shu so'zlarni Rumiylar hazratning ruhidan so'rab, g'azalga o'zim qo'shib yozib, kuyga solganman. Keyinchalik forchasini topib, aynan shunga o'xshash ma'nolar borligidan hayratlanganman. Ko'p joylarda shu qo'shiqlarni so'rashadi. Hatto, chet ellarda ham shu qo'shiqni kuylaganimda tilimizni umuman tushunmaydiganlar ham miriqib tinglashgan va keyin bu so'zlarning ma'nosini so'rab olishgan. Ular tinglab ta'sirlanganlariga sabab – qo'shiqni qalb eshitadi, ruh eshitadi. Faqat quloq eshitadigan va qalbga singmaydigan, ruhda iz qoldirmaydigan qo'shiqlarning umri qisqa.

Sherali Jo'rayev tabiatan shirali ovozga ega bo'lgan. Ijro uslubi [monolgik](#), [dramatik](#) iztiroblarga asoslangan. Uning ijrosidagi qo'shiqlar xalqchilligi, mushohadali, [falsafiy](#) mazmunga boyligi, benazir jozibasi va teran insoniy dardliligi bilan ajralib turadi. Jo'rayev repertuari ko'p qirrali va rang-barang bo'lib, qo'shiqlari asosini Sharq mumtoz ([Alisher Navoiy](#), [Zahiriddin Muhammad Bobur](#), [Sa'diy](#), [Sheroziy](#), [Hofiz](#), [Mashrab](#), [Ogahiy](#), [Jaloliddin Rumiylar](#), [Jomiy](#) va boshqalar) va zamonaviy ([Erkin Vohidov](#), [Abdulla Oripov](#) va boshqalar) shoirlarning she'rlari tashkil etadi. 2008-yil Jo'rayev uyida Rumiylarlik kechalarini uyushtirgan.

Sherali Jo'rayev o'zining uzoq yillik ijodi davomida yuzlab qo'shiq yozib, ijro etgan. Uning eng mashhur ashulalari orasida „Bahor ayyomi“ (Bobur she'ri), „[Birinchil muhabbatim](#)“ (Abdulla Oripov she'ri), „Inson qasidasi“ (Erkin Vohidov she'ri), „[Karvon](#)“, „Meni kutgil“ ([Konstantin Simonov](#) she'ri), „Oshiqlar sardori“ ([Rasul Hamzatov](#) she'ri), „[O'zbekim](#)“ (Erkin Vohidov she'ri), „O'xshamas“ (Alisher Navoiy g'azali) qo'shiqlari bor. Sherali Jo'rayevning „[O'zbekim](#)“ qo'shig'i World Music Network britan leybli 2005-yil chiqargan „[O'rta Osiyo](#) musiqasi bo'yicha umumiy qo'llanma“ ([inglizcha](#): Rough Guide to the Music of Central Asia) albomiga kiritilgan.

2004-yil 23-aprelda Britaniya qirolichasi [Elizabeth IIning](#) 78 yoshga to'lish munosabati bilan Britaniya elchisi [Craig Murray](#) mingdan oshiq mehmonni elchixonaga chaqirgan. [Toshkentdagi](#) tadbirga Sherali Jo'rayev, [Sevara Nazarxon](#) va Vladimir Neimer dirijorlik qilgan orkestr chaqirilgan. O'sha paytda yana Britaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi [Battlefiyeld Band](#) [en] shotland guruhining O'zbekiston bo'ylab turini uyushtirgan. Bu guruh bilan Sh.Jo'rayev ham birga qo'shiq kuylagan.

Sherali Jo'rayev aksar qo'shiqlari kuyini o'zi bastalagan (jumladan, „Birinchi muhabbatim“, „O'zbekim“, „Karvon“, „Achchiq haqiqat“, „Yaralgan“, „Oshiqlar sardori“, „Inson qasidasi“, „Oshiq bo'ling“ va boshqalar). Ba'zi qo'shiqlarining matnini ham o'zi yozgan. Bular orasida „Bobo Dehqon“, „Zamon“, „Qarashlarga“, „Ona Turkiston“, „Sohibqiron“, „Do'st bo'lsang, yonimda tur“, „Qayon ketmoqdasiz?“ ashulalari bor.

Sh. Jo'rayev Z.M.Bobur ijodiga alohida e'tibor qaratib „Bahor ayyomi“ g'azaliga kuy bastalab uni shunday ishtiyoq bilan ijro etadiku, unung ijrosini eshitgan kishi go'yoki Z.M.Bobur dilidagi dardlarini shoirning nomidan tinglovchiga aytilayotgandek tuyiladi. Bu esa o'z navbatida Sh.Jo'rayevning so'zni musiqaga bog'lashda bastakorlikni ham mahorat bilan bajarganligini bildiradi.

Bahor ayyomidur

Bahor ayyomidur dog'I yigitlikning avonidur,

Ketur soqiy, sharobi nobkim-ishrat zamonidur.

Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun,

Gahi sahni chaman gul chehrasidin arg'uvonidur.

Yana sahni chaman bo'ldi munaqqash rangi gullardin'

Magarkim sunning naqqoshig'a rang imtihonidur.

Yuzing, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,

Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur.

Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadur chin joni Boburning.

Garibing'a tarahhum aylagilkim, andi jonidur.

1992-yilda O'zteleradiokompaniyasi Jo'rayev ijodiga bag'ishlangan „Bir ulug' el bor jahonda“ film-esse yaratgan. Qo'shiqchi [Yevropa](#), [Osiyo](#) mamlakatlarida gastrolga bo'lgan. Jo'rayev 1990-yildan 1995-yilgacha [O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi](#) a'zosi bo'lgan. U „[Sherali va Oybachin](#)“ filmiga ssenariy yozgan va filmda bosh rolni o'ynagan. 1998-yil „Bola yerning sultoni“ ([ruscha](#): *Rebenok – sultan Zemli*) deb nomlanuvchi kitob yozgan.

Sherali Jo'rayev nafaqat qo'shiqlar uchun kuy bastalagan, balki she'rlar ham yozgan. 2023-yilda uning „Bir qo'shiq kuylayki...“ nomli she'riy to'plami nashr

etilgan. Kitobga uning qalamiga mansub she'r va g'azallar, shuningdek, „Ishq“ dostoni kiritilgan. Shu yilning 4-may kuni [O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida](#) ushbu kitobning taqdimoti bo'lib o'tgan. O'sha kuni Jo'rayevga [uyushma](#) raisi [Sirojiddin Sayyid](#) tomonidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zolik guvohnomasi topshirilgan.

2004 yil Solijon Sharipov markaziy osiyolik birinchi kosmonavt sifatida NASA astronavi Leroy Chiao bilan Bayqo'ng'ir kosmodromidan "Soyuz TMA-5" kosmik kemasida fazoga ko'tariladi. U o'zining 201 kunlik fazoviy missiyasida eshitish uchun Sherhali Jo'rayev qo'shiqlarini ham o'zi bilan olib olgandi. 2004 yil u maxsus bog'lanish qurilmasi yordamida Sherhali Jo'rayevga qo'ng'iroq qiladi va uning "Oltin qanot" qo'shig'i kosmosda yangrayotganini aytadi.

Keyinchalik kosmonavtning ta'kidlashicha, u missiyasi davomida ko'plab Sherhali Jo'rayevning qo'shiqlarini eshitgan. Natijada Sherhali Jo'rayev birinchi kosmosda qo'shiqlari yangragan o'zbek san'atkoriga aylangan.

Oltin Qanot qushlar uchsun,
qushlar uchsun
Bizni midom baxtlar quchsin,
baxtlar quchsin.
Bizni midom baxtlar quchsin,
baxtlar quchsin.
Sen tomonga talpingayman, vaslinga zor.
"Hayotimsan, baxtimsan"- deb , aytganing bor!
Kutgin mani zamindagi ey, go'zal yor.
Kutgin mani zamindagi
Ey, go'zal yor,
kutgin mani zamindagi
ey, go'zal yor
Oltin qanot qushlar uchsun,
qushlar uchsun.
Bizni mudom baxtlar quchsin,
baxtlar quchsin.
Bizni mudom baxtlar quchsin,
baxtlar quchsin,
Er o'gloni uchu uchlar qutlaydi or
Ko'kda hamroh parivashlar, bo'ling omon.
Osmonlarga termultirgan oromijon,
osmonlarga termultirgan oromi jon.
Oltin qanot qushlar uchsun,

qushlar uchsun.

Bizni midom baxtlar quchsin,

baxtlar quchsin.

Bizni midom baxtlar quchsin,

baxtlar quchsin.

Bir qarashda zamonaviy va milliy musiqa bir-biriga qarama-qarshidek tuyiladi. Sokin va xotirjam kuylanadigan milliy musiqa muxlislari dastlab, biroz shovqinli va notanish bo'lgan, ko'proq musiqa asboblari ishlatiladigan zamonaviy musiqani xushlashmagan. Sherali Jo'rayev esa ushbu ikki bir-biriga teskari "qutb"ni birlashtira olgan birinchi san'atkor edi.

Darhaqiqat, uning muxlislarini zamonaviy va milliy musiqa ixlosmandlari tashkil qiladi. Bundan tashqari uning qo'shiqlari ikki xil musiqa ixlosmandlarini birlashtirgani bilan birga chuqur ma'noga ega. Uning ijodida o'zbek xalqining o'ziga xos etnopsixologik xarakteri tasvirini ham ko'rish mumkin. "Do'st bo'lsang, yonimda tur" qo'shig'i o'zbek xalqining do'stlikdagi sadoqati haqida bo'lsa, To'ra Sulaymon so'zi bilan yozilgan "Ketma bahor" qo'shig'i o'zbeklarning SSSR repressiyalari paytidagi kayfiyati aksi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, Sherali Jo'rayev qo'shiqlarida o'ziga xos falsafiy ma'no bor.

Sh. Jo'rayev ijro etgan, yaratgan qo'shiqlar xalq qalbidan chuqur joy olganki, bu barhayot qo'shiqlar uning shogirdlari va yosh ijodkorlar tomonidan sevib ijro etilishi tinglovchilarga manzur bo'lib kelmoqda.

Sh. Jo'rayev xotirasini abadiylashtirish uchun 2025 yil 28 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi Sh. Jo'rayev nomidagi musiqa va san'at oliy maktabiga aylantirildi. Bu maskanda Sh. Jo'rayev ijrosidagi asarlar ustozlar tomonidan yoshlarga o'rgatilmoqda. Shu bilan birga ustozning qo'shiqlarini ijro etish boyicha tanlovlar tashkil etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Navoiy asarlari to'plami.
2. J.Rumiy asarlari to'plami
3. Z.M. Bobur asarlari to'plami
4. Sh. Jo'rayev " Bir qo'shiq kuylayki..."
5. Internet ma'lumotlar.